

8-sinf ona tili. 3-BSB (50 ball)

Topshiriqli diktant

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- diktant matnini imlo qoidalarini hamda husnixatga rioya qilgan holda yozadi;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;
- omonim so'zlarni aniqlab izohlaydi;
- aniq va mavhum otlarni ajrata oladi;
- aniqlovchini aniqlab, turiga ko'ra ajrata oladi.

Diktant matni

Sport va salomatlik

Hamma xalqlarda sport turlarining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi kishilardagi har tomonlama sog'lomlikka va chaqqonlikka intilish maqsadi bilan bog'liq bo'lgan. Asrlar o'tishi bilan sport o'yinlarining turlari ko'payib, murakkablashib borgan, ommaviylashgan. Sportning piyoda yurish, otda chopish, qilichbozlik, kurash kabi turlari ayrim podshohlarni, xususan, lashkarboshilarni ham qiziqtirgan. Sharqda tabiblar sportni muolajaning muhim turlaridan biri hisoblaganlar.

Kishilarni sog'lom tarbiyalash, chiniqtirish masalalariga diniy kitoblarda ham e'tibor berilgan. Bir kunda besh mahal namoz o'qish, ertalab barvaqt turish, badanni doim toza tutishning badantarbiyaga aloqasi bormi, yo'qmi, bu alohida masala. Lekin hadisi shariflarda "Tangri o'z bandalari orasida g'ayratlisini yoqtiradi", "Safar qilinglar, sog'lom bo'lasizlar", "O'yinlaringiz ichida yaxshirog'i, afzali kamondan o'q otishdir", degan nasihat va o'gitlar ko'p.

I. Matnni baholash mezonini (20 ball)

Baholash mezonini		1-2 ta	3-4 ta	5-6 ta	7-8 ta
Imlo xatolari	10 ball	10 – 9 ball	8 – 7 ball	6 – 4 ball	3 – 1 ball
Tinish belgilari	5 ball	4 ball	3 ball	2 ball	1 ball
Husnixat	5 ball				
matn aniq, ravon, tushunarli hamda husnixat qoidalariga rioya qilingan holda yozilgan bo'lsa –	5 – 4 ball				
husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa –	3 – 1 ball				
Jami:	20 ball				

II. Diktant matni yuzasidan topshiriqlar. (30 ball)

1. Quyidagi gaplardan asosi omonim soʻzlarni topib, izohlang (10 ball).

Hamma xalqlarda sport turlarining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi kishilardagi har tomonlama sogʻlomlikka va chaqqonlikka intilish maqsadi bilan bogʻliq boʻlgan.

2. Gaplar tarkibidan aniq va mavhum otlarni ajratib yozing (10 ball).

Hadisi shariflarda “Tangri oʻz bandalari orasida gʻayratlisini yoqtiradi”, “Safar qilinglar, sogʻlom boʻlasizlar”, “Oʻyinlaringiz ichida yaxshirogʻi, afzali kamondan oʻq otishdir”, degan nasihat va oʻgitlar koʻp.

Aniq otlar	Mavhum otlar

3. Quyidagi gaplardan aniqlovchini aniqlang va turiga koʻra ajrating (10 ball).

Hamma xalqlarda sport turlarining yuzaga kelishi va taraqqiy etishi kishilardagi har tomonlama sogʻlomlikka va chaqqonlikka intilish maqsadi bilan bogʻliq boʻlgan. Sportning piyoda yurish, otda chopish, qilichbozlik, kurash kabi turlari ayrim podshohlarni, xususan, lashkarboshilarni ham qiziqtirgan. Sharqda tabiblar sportni muolajaning muhim turlaridan biri hisoblaganlar.

Qaratqich aniqlovchi	Sifatlovchi aniqlovchi

Topshiriqlarni baholash mezon (30 ball)	
1. Gaplardan asosi omonim soʻzlarni topib, izohlay olishi	10 ball
Gaplardan asosi omonim boʻlgan soʻzlarni toʻliq topib, toʻgʻri izohlay olgan boʻlsa –	10 – 8 ball
Gaplardan asosi omonim soʻzlarni topgan, biroq izohlashda xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	7 – 5 ball
Gaplardan asosi omonim boʻlgan soʻzlarni deyarli aniqlay olmagan boʻlsa–	4 – 1 ball
2. Gaplar tarkibidan aniq va mavhum otlarni ajratib yozishi	10 ball
Gaplar tarkibidan aniq va mavhum otlarni toʻliq ajratib yozgan boʻlsa –	10 – 8 ball
Gaplar tarkibidan aniq va mavhum otlarni ajratishda biroz xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	7 – 5 ball
Gaplar tarkibidan aniq va mavhum otlarni deyarli ajrata olmagan boʻlsa–	4 – 1 ball
3. Gaplar tarkibidan aniqlovchini aniqlab, turiga koʻra ajrata olishi	10 ball
Gaplar tarkibidan aniqlovchilarni aniqlagan va turiga koʻra toʻliq va toʻgʻri ajratgan boʻlsa –	10 – 8 ball
Gaplar tarkibidan aniqlovchilarni qisman aniqlagan va turiga koʻra ajrata olgan boʻlsa –	7 – 5 ball
Aniqlovchilarni aniqlashda bir talay xatolikka yoʻl qoʻygan boʻlsa –	4 – 1 ball
Jami:	30 ball